KAR VA ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR KOMMUNIKATIV MALARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sadirova Kamola Giyozovna
Nizomiy nomidagi O‘zMPU
Surdopedagogika va MPKA kafedra dotsenti, PhD.

Annotatsiya: *Hozirgi kunda zamonaviy, har tomonlama komil, bilimdon, ishbilarmon yoshlarning kamol topishini ta’minlash maktab, oila va jamoatchilik tomonidan yoshlarga kuchli e’tibor, yetarlicha keng bilim berishni talab etadi. Bu masala o‘sib kelayotgan yosh avlodning o‘z ona tilini mukammal egallashisiz hal bo‘lmaydi. Ana shu avlodning to‘laqonli a’zosi sifatida kar va zaif eshituvchi bolalar ham jamiyat rivojlanishida o‘z o‘rniga egadir. Ularning tilni egallashi sog‘lom tengdoshlariga nisbatan o‘ziga xos kechadi. Bu o‘ziga xoslik mazkur bolalarning nutqiy va umumiy rivojlanishiga ta’sir etadi.*

Kalit so‘zlar: *Kommunikativ malaka, ta’lim, daktil nutq, nuqsonli bolalar, qo‘llab-quvvatlash, rivojlantirish, qulaylik, murojaat tizimi, strategiyalar, integrativ ta’lim, prinsiplar.*

Аннотация: *В наши дни обеспечение развития современной, всесторонне развитой, знающей и предприимчивой молодежи требует пристального внимания к молодым людям и достаточно широкого образования со стороны школ, семей и общества. Эта проблема не может быть решена без того, чтобы растущее молодое поколение в совершенстве овладело своим родным языком. Как полноправные члены этого поколения, глухие и слабослышащие дети также занимают свое место в развитии общества. Их способность к освоению языка уникальна по сравнению с их здоровыми сверстниками. Эта уникальность влияет на речь и общее развитие этих детей.*

Ключевые слова: *Коммуникативная компетентность, образование, диктант, дети с ограниченными возможностями, поддержка, развитие, доступность, система направления к специалистам, стратегии, интегративное образование, принципы.*

Annotation: *Nowadays, ensuring the development of modern, well-rounded, knowledgeable, and enterprising youth requires close attention and a broad education program from schools, families, and society. This problem cannot be solved without ensuring that the growing generation masters their native language. As full members of this generation, deaf and hard of hearing children also have a place in the development of society. Their ability to acquire language is unique compared to their able-bodied peers. This uniqueness impacts their speech and overall development.*

Keywords: *Communicative competence, education, dictation, children with disabilities, support, development, accessibility, referral system, strategies, integrative education, principles.*

Hozirgi kunda zamonaviy, har tomonlama komil, bilimdon, ishbilarmon yoshlarning kamol topishini ta’minlash maktab, oila va jamoatchilik tomonidan yoshlarga kuchli e’tibor, yetarlicha keng bilim berishni talab etadi. Bu masala o‘sib kelayotgan yosh avlodning o‘z ona tilini mukammal egallashisiz hal bo‘lmaydi. Ana shu avlodning to‘laqonli a’zosi sifatida kar va zaif eshituvchi bolalar ham jamiyat rivojlanishida o‘z o‘rniga egadir. Ularning tilni egallashi sog‘lom tengdoshlariga nisbatan o‘ziga xos kechadi. Bu o‘ziga xoslik mazkur bolalarning nutqiy va umumiy rivojlanishiga ta’sir etadi. Ushbu cheklanganlik kar va zaif eshituvchi bolalarga ona tilini o‘rgatishda maxsus pedagogik, psixologik yondashishni, xususan, tilga maxsus o‘rgatishni tashkil qilishni talab qiladi.

Milliy surdopedagogika sohasida D.Sh.Azimova, F.Alimxo‘jayeva, N.Bekmurodov,Z.N.Mamarajabova, D.Nazarova, X.Raximova, R.Rustamova,

K.G‘.Sadirova, G.Temurova, U.Fayziyeva, F.U.Qodirova, M.M.Qodirov, D.B.Yakubjanova ilmiy tadqiqotida eshitishning buzilishi aksariyat hollarda nutqsizlik, mazkur nuqson tufayli og‘ir nutq buzilishlari yoki umumiy nutq rivojlanmasligiga olib kelishi ta’kidlanadi[1]. Ushbu ilmiy qarashlar kar va zaif eshituvchi bolalarni nutq mexanizmining xususiyatlari uning eshitish qobiliyati nuqsonliligidagi o‘ziga xosligini aniqlashga imkon yaratadi. Bolada mantiqiy tafakkurning rivojlanishi uchun yetakchi va asosiy omil nutqni rivojlanishi hisoblanadi. F.Alimxo‘jayeva , N.Bekmurodov, U.Fayziyeva ilmiy ta’limotiga asosan, kar va zaif eshituvchi bolalar ham sog‘lom bolalar qatori maxsus tashkil etilgan ta’lim-tarbiya jarayoni natijasida maxsus belgilangan (aynan shu bolalar fiziologik, psixologik imkoniyatlaridan kelib chiqilgan) talablarni egallash imkoniyatiga egadir[2].. Z.Mamarajabova fikricha, kar va zaif eshituvchi bolalarni kommunikativ kompetensiyasini muloqot vositasi sifatida egallashga o‘rgatish jarayonining asosini so‘zlashuv (og‘zaki, yozma) nutqini shakllantirish tashkil qiladi. Ushbu jarayonga psixologik-pedagogik tavsif berish kar va zaif eshituvchi bolalarda nutq shakllari va nutqiy vositalarning o‘zaro fiziologik, psixologik munosabatini tahlil qilishni taqozo qiladi.

Eshituvchilarning eshitish sezgisi qanchalik o‘z nutqini boshqarish imkonini bersa, kar va zaif eshituvchilar uchun esa bu vazifani barmoq harakatlari (daktillash) bajaradi. Daktil nutqqa o‘qitish bilan bir qatorda, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni og‘zaki va yozma nutqqa o‘rgatish sodir bo‘ladi. Og‘zaki nutqqa o‘qitish eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni daktil shaklda egallagan va nutqiy muloqotiga(lug‘atiga) kiritilgan so‘zlarning talaffuzini egallashga majbur qiladi. D.B.Yakubjanova ilmiy ishlarida “ Kar

[1] Raximova X.S.Koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy reabilitatsiyasi Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 1994. – 24 b

[2] Садирова К.Ғ. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni tasviriy faoliyatini rivojlantirish ped. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: TDPI, 2023. – 28 b.

va zaif eshituvchi bola dastavval nutqiy materialni ikki shaklda, daktil va og‘zaki so‘ngra faqat og‘zaki shaklda qabul qilishga o‘rgatiladi va bunda labdan o‘qishga o‘rgatishning asosiy yo‘nalishi belgilanadi, hamda so‘zlashuv nutqining yozma shakliga ham o‘qitiladi”-deb tadqin qilinadi [3].

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda so‘zlashuv (og‘zaki, yozma) nutqni shakllantirish masalasi nutqning fiziologik va psixologik xususiyatlarini o‘rganmasdan turib, to‘g‘ri va to‘la hal qilinmaydi. Fiziologlar tomonidan olib borilgan kuzatishlarning ko‘rsatishicha, nutq shartli reflekslar asosida shakllanadi. Bosh miyaga ta’sir qilgan nutqiy qo‘zg‘atuvchilar bolaning shu reaksiyaga javobi nutqiy reaksiyani chaqiradi. “So‘zlovchining nutqini eshitib qabul qilish nutqiy harakatga turtkidir”-deb hisoblaydi S.F Turg‘unbouev[4] Demak eshitish orqali qabul qilingan qo‘zg‘alishlar takrorlash orqali mustahkamlanuvchi artikulyatsion reaksiya hosil qiladi. Bu holat quloq orqali qabul qilingan qo‘zg‘atuvchilarning ifodasigina emas, balki tovushlarning differensiatsiyasiga va qabul qilingan qo‘zg‘alishlardan qolgan izlarning saqlanishiga yordam beruvchi omildir. Ma’lumki, inson tovushlarni artikulyatsiya, talaffuz qilgandagina, uni yaxshi differensiatsiyalaydi va esda saqlaydi.Tayyor jadvalchalar bilan ishlaganda harakat sferasi mustasno qoladi. Chunki qo‘zg‘atuvchilarning differensiatsiyalanish va ulardan qolgan izlarning saqlanish jarayoni faqat ko‘rishga asoslanib qoladi. Kar va zaif eshituvchi bolalarni tayyor jadvalchalar asosida talaffuz (artikulyatsiya) ning ishtirokisiz tilga o‘qitish yuqori natija bermaydi[5]. O‘zbek tili yozuvining tovush-harf tarkibini egallash bilan bola murakkab nutqiy bilish faoliyat turiga kirib keladi.

---

[3] Yakubjanova D.B. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari boshlang‘ich sinflarida korreksion-rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalarini takomillashtirish : ped. fanlari doktori (DSc) diss.avtoref. –T., 2021. -22 b.

[4] Turg‘unboyev S.F.O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalarga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar bitiruvchilarining ijtimoiy moslashuv muammolari ped. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – T., 2020.

[5] Turg‘unboyev S.F.O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalarga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar bitiruvchilarining ijtimoiy moslashuv muammolari ped. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – T., 2020. – 22 b.

Bola o‘z nutqini ongli ravishda tahlil qiladi, talaffuzini farqlaydi. Eshitib farqlagan so‘z (tovush, bo‘g‘in)ni yozuvda ifodalangan yoki ko‘z o‘ngida gavdalanayotgan grafik belgilar bilan solishtiradi. Shu tariqa ko‘p marta analitik-sintetik mashqlarning takroran bajarilishi natijasida nutqiy materialdan foydalanish ko‘nikma va malakalari ishlab chiqiladi.Kar va zaif eshituvchi eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar so‘zlashuv nutqining shakllanishi F.U.Qodirova fikricha, bolalarda nutqqacha bo‘lgan davr va ilk yoshdagi nutqiy rivojlanish davrining to‘g‘ri aniqlanib, yo‘nalganligiga bog‘liq. Aksariyat holda bunday bolalar nutqqacha bo‘lgan davrda (gugulash) ona ovoziga befarq bo‘lishlari va bunga kattalar tomonidan “keyinchalik gapiradi” degan munosabat bildirilishi kuzatiladi. Bu esa bolada kattalar nutqiga taqlid qilish kabi jarayonni ham kechiktiradi. Natijada bola atrofdagilardan cheklangan munosabatdaligicha rivojlanadi. Shuning uchun kar va zaif eshituvchi bolaning tashhisi erta aniqlanib, to‘g‘ri yondashilsa, uning muloqot qilish imkoniyatiga shunchalik zamin yaratiladi[6].

Kar bolalarda nutqni shakllantirish maxsus o‘qitish sharoitida qoldiqli analizatorlardan foydalanishga asoslanadi. Ko‘rib va eshitib idrok idrok etish, kinestetik sezgi, taktik vibratsiyali sezgirlik faol jalb qilinadi. Surdopedagog kar bolaga nutqiy apparat harakatlarini egallash, eshitib idrok etishni rivojlantirishda (ovoz kuchaytirish apparaturasidan majburiy foydalanish bilan) ko‘maklashadi.

Zamonaviy surdopedagogika fanida eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topishlarining muhim omili – nutqni rivojlantirish ishlarining samaradorligiga bog‘liqligini alohida qayd etadilar. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolaning zamon talabi asosida har tomonlama shakllangan shaxs bo‘lib jamiyat ishlarida faol qatnashishi,samarali ijtimoiylashuvi kommunikativ malakani t’o‘g‘ri shakklaganligiga bog‘liqdir,

[6] Qodirova F. U. Boshlang‘ich sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar nutqini shakllantirish. : Ped. fan. nomz. dis. avtoref…– T.:TDPU, 2006

chunonochi nutq muloqot vositasi, milliy boylik hamda ta’lim-tarbiya, maorif va ijodiyot uchun qudratli vositadir. Shu bois har bir insonni nutqni puxta egallash, o‘z fikrini to‘liq ifoda etishga o‘rgatish muhimdir.So‘nggi yillarda M.N.Mamarajabova, D.U.Muxitdinoava, D.Nazarova, X.Raximova, R.Rustamova, K.G‘.Sadirova, U.Fayziyeva, F.U.Qodirova, M.M.Qodirov, D.B.Yakubjanova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar maktabgacha va maktab yoshdagi eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar kommunikativ malakasini rivojlantirish nazariyasi va amaliyotini takomillashtirish, boyitishga katta hissa qo‘shdi. Mavzuga doir izlanishlarda nutqning yuzaga kelishi, uni rivojlantirish va eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalaring nutqni shakllantirish hamda rivojlantirish muammosini hal qilishga o‘ziga xos munosabat bildirilgangan, ammo eshitishda nuqsoni bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy maishiy hayotga yo‘naltirishda kommunikativ malakalarini rivojlantirishda tizimli yondashuvning, maxsus tashkil etilgan ishning zarurligini ta’kidlanadi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy maishiy hayotga yo‘naltirishda kommunikativ malakalarini rivojlantirishga doir milliy va xorijiy ilg‘or tendensiyalar tahlili asosida quyidagicha xulosalar chiqarishimiz mumkin: Eshitishda nuqsoni bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy maishiy hayotga yo‘naltirishda kommunikativ malakalarini til hodisalarining generatsiyasi bo‘lib, kattalar nutqini idrok etish va o‘z nutqining faolligi natijasida rivojlanadi; Eshitishda nuqsoni bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy maishiy hayotga yo‘naltirishda kommunikativ malakalarini til va nutq ruhiy rivojlanishning turli yo‘nalishlari (tafakkur, xotira, his-tuyg‘ular, xayolot) yadrosini tashkil etadi; Eshitishda nuqsoni bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy maishiy hayotga yo‘naltirishda kommunikativ malakalarini, o‘z nutqini rivojlantirishi uchun shart-sharoitlar maxsus ravishda tashkil etiluvchi til hodisalarini anglashga yo‘naltirilgan tizim orqali ta’minlanadi. Adabiyotlar sharhi, surdopedagogika sohasidagi qator yutuqlarga

qaramay, respublikamizda eshitishda nuqsoni bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy maishiy hayotga yo‘naltirishda kommunikativ malakalarini shakllantirish tizimi, innovatsion usullari, texnologiyasi ishlab chiqilmaganini ko‘rsatdi.

ADABIYOTLAR:

1. Sadirova, K. (2022). Improving the methods of teaching visual activity to students with hearing impairments based on an innovative approach. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(9), 26-28.

2. Sadirova, Kamola. "Improving the methods of teaching visual activity to students with hearing impairments based on an innovative approach." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 12.9 (2022): 26-28.

3. Sadirova, K. (2022). Improving the methods of teaching visual activity to students with hearing impairments based on an innovative approach. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(9), 26-28.

4. D.Nazarova, Z.Mamarajabova. Surdopedagogika – T.: Innovatsiya-ziyo. 2019.